

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.F.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA XAYITXON MAXAMMADJONOVNA**

**FARG‘ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARI  
TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филолософским наукам**

**Ismoilova Xayitxon Maxammadjonovna**

Farg‘ona vodiysida oila urf-odatlari va qadriyatlarini transformatsiyasining  
ijtimoiy-falsafiy tahlili..... 3

**Ismoilova Khayitkhon Maxammadjonovna**

Social and philosophical analysis of the transformation of family traditions and  
values in the Fergana Valley ..... 25

**Исмоилова Хайитхон Махаммаджоновна**

Социально-философский анализ трансформации семейных традиций и  
ценностей в Ферганской долине ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 54

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.F.10.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMOILOVA XAYITXON MAXAMMADJONOVNA**

**FARG‘ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARI**  
**TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2026**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fal 1225 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Madayeva Shaxnoza Omonullayevna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Yetakchi tashkilot:**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.10.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tarix fakulteti, 2-qavat, 219-xona. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.A.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlar doktori (DSc), professor

**B.S.Ganiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlar doktori (DSc), professor

**S.U.Yuldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga ta'sir etgani kabi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini ham chetlab o'tmadi. Oila qadriyatlari uzoq tarixga ega bo'lsada, milliy mental xususiyatlarida transformatsiya jarayonlari doimiy sodir bo'lmoqda. Oila urf-odatlarini va qadriyatlarini qadimgi davrlardan boshlab insoniyat madaniy hayotida o'ziga xos yo'nalishda rivoj topgan. Shuning uchun oilada avlodlararo munosabatlarni saqlab qolish, oila qadriyatlarini kelajak avlodga yetkazish, hozirgi zamon yoshlariga singdirish zarur. Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Xalqaro oila kuni" rezolyutsiyasi, "Ming yillik rivojlanish" deklaratsiyasi kabi xalqaro huquq normalari bugun xalqaro doirada oila qadriyatlarini va urf-odatlarini saqlab qolishda huquqiy asos bo'lmoqda.

Dunyo miqyosida oilaviy munosabatlardagi ziddiyatlar va muammolar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda oila qadriyatlarini va urf-odatlaridagi muammolarni teran yoritishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Shu sababli ham jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida oila urf-odatlarini va qadriyatlarining o'ziga xos jihatlari, oila munosabatlari mustahkamlash masalalarini o'rganish bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda oila munosabatlaridagi muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, milliy oila urf-odat va qadriyatlarini saqlab qolishning dolzarbligiga ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Nyu Yorkdagi inqiroz, kasallik yoki yo'qotishdan jabr ko'rgan oilalarni mustahkamlash, ularning farzandlari uchun bugungi kun va kelajakni yanada xavfsiz yaratish maqsadida The family center (keeping families longer)<sup>1</sup> tashkiloti, Bolalar va oila huquqi bo'yicha xalqaro bolalarga yo'naltirilgan International Centre for Children and Family Law<sup>2</sup> kabi bir qator xalqaro oila tashkilotlari oila qadriyatlarini mustahkamlash maqsadida faoliyat olib bormoqda.

Yangi O'zbekistonda oila urf-odatlarini va qadriyatlarini mustahkamlash borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Oila munosabatlarining mustahkamlanishi, zamonaviy oila urf-odat va qadriyatlarining kelib chiqish xususiyatlari, oiladagi muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish usullari, aholi turmush darajasi kabi masalalarni o'rganish, ularning xususiyatlarini aniqlashga alohida urg'u berilmoqda. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda "Mahalla ziyosi" o'quv-uslubiy markazi negizida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi tasdiqlandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV-bobi Oila, bolalar va yoshlar deb nomlanib, 76-moddasida Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida O'zbek xalqining milliy qadriyatlarini va ma'naviy me'rosini asrab-

<sup>1</sup> The family center (keeping families longer) / <https://www.thefamilycenter.org/>

<sup>2</sup> International Centre for Children and Family Law / <https://iccfl.training/>

avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha yangi yondashuvlar joriy qilish belgilandi.

O'z navbatida O'zbekiston hududida, xususan, Farg'ona vodiysida mazkur muammolar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etib, kun tartibida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Oila urf-odat va qadriyatlardagi mintaqaning o'ziga xos mental xususiyatlarini saqlab qolish, ularning xususiyatlarini aniqlash va anglab yetish ushbu tadqiqot zaruriyatini alohida ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-147-son "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, 2020-yil 18 fevraldagi PQ-4602-son "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi 204-son "2022-2026 yillarda Andijon viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 25-apreldagi 211-son "2022-2026 yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2022-yil 28-apreldagi 221-son "2022-2026 yillarda Farg'ona viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlat ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oila urf-odatlari va qadriyatlarini saqlab qolish, buning uchun hududlar kesimida izchil islohotlarni olib borishga yo'naltirilgan nutqlari, asarlari dissertatsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish uchun nazariy metodologik asosdir.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "... mamlakatimiz iqtisodiy qudratining o'sishi, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga, ayniqsa, qishloq joylarda bunga erishish - avvalambor, mamlakatimiz hududlarining kompleks va izchil rivojlanishi bilan belgilanishini yaxshi tushunamiz. Bu bizning ham yaqin, ham uzoq muddatli istiqboldagi vazifamizdir"<sup>3</sup> deb ta'kidlab o'tadi. Bu

---

<sup>3</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик - халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг хаётбахш манбаи. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: НМИУ, 2018. - Б. 72.

fikrlardan bugungi globallashuv sharoitida aholi turmush sharoitlarini yaxshilash va har bir hududning o'ziga xos milliy mental xususiyatlarini saqlab qolish zarur ekanligini anglash mumkin.

Har bir hududning o'ziga xos milliy mental xususiyatlarini saqlab qolish va oila urf-odatlarini, qadriyatlarini mustahkamlash falsafaning ham muammosi hisoblanadi. Oiladagi urf-odat va qadriyatlar masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar hamda faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Buni birinchi navbatda Sharq allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy asarlarda ko'rish mumkin. Qomusiy olimlar: Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom al Buxoriy, Motrudiy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Burhonuddin Marg'inoniy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon to'ra Ibrat va boshqalarning oilaviy munosabatlarni mustahkamlanishida urf-odat va qadriyatlarining ahamiyati to'g'risidagi qarashlari o'rganilib, ijtimoiy-falsafiy tahlil etildi.

Jadidchilik harakati namoyandalari Muqimiy, Furqat, Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi mutafakkirlarning ijodiy ishlari, vodiy aholisi turmush tarzidan ma'lumot beruvchi asarlari tahlil etildi.

Xorijiy olimlardan F.Starr, I.Hilgers, M.Kamp<sup>4</sup> kabi tadqiqotchilarning Farg'ona vodiysi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlari, aholi turmush tarziga oid ilmiy xulosalari o'rganilib, tahlil etildi. Farg'ona vodiysining geografiyasi, etnografiyasi, geosiyosiy o'rni, aholisining turmush tarzi bo'yicha S. Frederick Starr "Ferghana Valley The Heart of Central Asia" asarida ma'lumotlar bergan. Manbada muallif Farg'ona vodiysi haqida ilk yozma manbaalar II-I asrlarda paydo bo'lganligini ta'kidlaydi.

MDH olimlaridan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida, A.Vamberi, L.Potapov, V.Nalivkin, A.Luriya, S.N.Abashin, V.I.Bushkov<sup>5</sup> kabi tadqiqotchilar tomonidan Farg'ona vodiysi intellektual salohiyati, vodiy oilalari turmush tarzi, ayollarning oiladagi faoliyati, farzand tarbiyasi, nikoh va ajrim masalalari, jamiyatdagi yoshlar, katta oilalar, ularning oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlari, qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan.

Hozirgi zamon o'zbek olimlaridan, Sh.M.Abdullayev "Этносоциальные и этнополитические процессы в Ферганоское долине (Основные проблемы, тенденции в противоречия 70-80ые годы XX век)", Q.N.Nazarov "Qadriyatlar tizimi: Barqarorlik va o'zgarishlar dialektikasi", F.X.Yuldasheva "O'zbekistonda globallashuv sharoitida ma'naviy yangilanishning o'ziga xos xususiyatlari", Sh.O.Madayeva "O'zbek mentalitetida demokratik tafakkurning shakllanish xususiyatlari", M.P.Yunusova "O'zbekistonda mahalla tizimi transformasiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili" kabi masalalarni tadqiq etganlar.

O.X.Maxmudov, M.R.Dehqonov, R.X.Ro'ziyeva, S.N.Yusupova, R.R.Komilov, R.T.Zohirov, I.M.Xo'jaxonov, E.A.Tojimirzayev, N.A.Xushvaqova, Sh.Q.Amirxo'jayev, M.B.Karimova kabi tadqiqotchilar Farg'ona vodiysi oilalari,

---

<sup>4</sup> Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>5</sup> Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

oila munosabatlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, demografik jarayonlar va ularning millatlararo munosabatlarga ta'siri, nikoh marosimlarining genezisi, oilalarda ijtimoiy-madaniy jarayonlar transformatsiyasi, vodiy ayollari turmush tarzi borasidagi ilmiy ishlari o'rganilib, falsafiy tahlil qilindi.

O.O Bozorov, J.B.Davletov, S.M.Ro'zimurodov, S.S.Abdikarimova, B.Sh.Norbekova, R.Sh.Bozorova, Sh.R.Rashidova, X.D.Tillaxodjaeva, B.M.Vaxobov, E.A.Raxmonov, Q.A.Pulatov, X.SH.Ziyavutdinova, A.M.Sattarov<sup>6</sup>, kabi hozirgi zamon olimlarining, oiladagi sog'lom muhit, oila tadbirkorligi, oila munosabatlari, hozirgi zamon o'zbek oilasi va O'zbekistondagi millatlararo munosabatlar tarixi (Farg'ona fojiasi misolida) bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganilib, falsafiy tahlil etildi.

Farg'ona vodiysida oila urf-odatlar va qadriyatlar transformatsiyasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lib, ushbu dissertatsiya orqali birinchi marta mazkur muammo va uning yechimlari ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etilmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-yil 20-yanvardagi "O'zbekistonda madernizatsiya jarayonlari va innovatsiyalarni ijtimoiy falsafiy tadqiq etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Farg'ona vodiysi oila urf-odat va qadriyatlar transformatsiyasi jarayonini zamonaviy o'zbek oilasining barqaror hayotini ta'minlash kontekstida ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Farg'ona vodiysi urf-odatlar va qadriyatlar tadqiqotining tarixiy, etnologik, falsafiy jihatlari va metodologiyasini ishlab chiqish;

oila urf-odatlar va qadriyatlar transformatsiyasini o'rganishning zamonaviy nazariy yondashuvlarini aniqlash;

Farg'ona vodiysida oila va qadriyatlar tizimining milliy mental xususiyatlarini yoritish hamda unda jamiyat yacheykasi sifatida oila tizimining rolini aniqlash;

Farg'ona vodiysi oila va qadriyatlar tizimida diniy omillarni aniqlash;

Farg'ona vodiysida oila urf-odatlar va qadriyatlar tizimida vorisiylik va tadjrijiylik transformatsiyasini aniqlash;

O'zbekiston geostrategiyasida Farg'ona vodiysining o'rnini yoritish;

Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi deystruktiv omillarni aniqlash;

Farg'ona vodiysida zamonaviy davrda oila urf-odatlar va qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy-tizimli muammolarini aniqlash va ushbu muammolarga yechimlarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Farg'ona vodiysida oiladagi urf-odat va qadriyatlar transformatsiyasi jarayonlari olindi.

**Tadqiqotning predmetini** Farg'ona vodiysida oilaviy qadriyat va urf-odatlar transformatsiyasining ijtimoiy asoslarini o'rganish tashkil etadi.

---

<sup>6</sup> Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, freyming metodi, ijtimoiy-sotsiologik so‘rov, qiyosiy va germenevtik tahlil, og‘zaki tarix usullari kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlar transformatsiyasiga oid manbalarni tarixiy davrlashtirishdan kelib chiqib bir nechta turkumda klassifikatsiyalash vositasida vodiyning oila urf-odat, an‘analari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari haqida zamonaviy ijtimoiy tafakkurda ilmiy, ob‘yektiv-retrospektiv munosabat hosil bo‘lishi dalillangan;

ijtimoiy-madaniy sohalarda transformatsiya jarayonlari yuz berayotgan Farg‘ona vodiysi oilalarida urf-odat va qadriyatlarga amal qilinishi natijasida yosh avlodning intellektual salohiyati o‘sishi, jismoniy rivojlanishi, Vatanga, jamiyatga, oilaga nisbatan qadriyatiy dunyoqarashi mukammal rivojlangan shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo‘lishi aniqlangan.

Farg‘ona vodiysida oila urf-odatlar va qadriyatlar tizimida vorisiylik va tadrijiylik tamoyillari, qonuniyatlari, o‘zgarish segmentlari asoslangan; madaniy-mental fenomenlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan korrelyatsiyasi dalillangan natijada Farg‘ona vodiysi oila qadriyatlar transformatsiyasi o‘zgarish segmentlari ochib berilgan;

zamonaviy global davrda Farg‘ona vodiysida demografik o‘sishning balandligi, mintaqada oilalar soni ortib borishi shu bilan birga, aholi orasida mehnat resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, ishsizlik oqibatida migratsiya jarayonining ko‘proq yosh yigitlarning oiladan yiroqda bo‘lishi oila qadriyatlarining buzilishiga, ajrimlarga olib kelayotgani, natijada yosh avlodni millat mentalitetiga mos tarzda tarbiyalashda, oila urf-odatlari va qadriyatlarini to‘g‘ri tushuntira olish, ularni targ‘ib qilish orqali O‘zbekiston geostrategiyasida Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlarini saqlab qolish muhimligi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot jarayonida to‘plangan natijalar oila va nikoh munosabatlari, jamoa va boshqaruv masalalariga doir yondashuvlarni to‘ldiradi;

davlat va jamoat boshqaruvi organlari uchun ijtimoiy-maishiy xarakterdagi masalalarni ishlab chiqish va hal etish bilan bog‘liq amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi;

yoshlar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlari, xalqaro ilmiy loyihalar hamda ommaviy axborot vositalaridagi ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishda, shuningdek muammoga doir oliy ta‘lim tizimining yangi uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda qo‘llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoni aniq qo‘yilganligi respublika, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari statistik ma‘lumotlar hamda davriy matbuot materiallari asosida tadqiq etilgani va vodiylar aholisi orasida ijtimoiy so‘rovnomalar va og‘zaki tarix uslubi asosidagi suhbatlar o‘tkazilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oila urf-odatlari va qadriyatlar transformatsiyasining mohiyati va

funksiyalari, uning evolyutsion va innovatsion xususiyatga ega jarayon ekanligi nazariy, metodologik va amaliy xulosalarda umumlashtirilgan hamda konkretlashtirilgan holda, tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan o'zini o'zi boshqarish organlari, yoshlar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlari, xalqaro ilmiy loyihalar hamda ommaviy axborot vositalaridagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishda, shuningdek muammoga doir oliy ta'lim tizimining yangi uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda qo'llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg'ona vodiysida oila urf-odatlari va qadriyatlar transformatsiyasining ahamiyatiga doir ishlab chiqilgan ijtimoiy-falsafiy takliflar asosida:

Farg'ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlar transformatsiyasiga oid manbalarni tarixiy davrlashtirishdan kelib chiqib bir nechta turkumda klassifikatsiyalash vositasida vodiyning oila urf-odat, an'analari, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari haqida zamonaviy ijtimoiy tafakkurda ilmiy, ob'yektiv-retrospektiv munosabatlarni tahlil etishga oid ilmiy natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021-2022 yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 2024-yil 5-martdagi №10/492-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya ilmiy natijalari loyiha doirasida qo'llanma, dastur va ishlanmalar ishlab chiqishda xizmat qilgan;

Ijtimoiy-madaniy sohalarda transformatsiya jarayonlari yuz berayotgan Farg'ona vodiysi oilalarida urf-odat va qadriyatlarga amal qilinishi natijasida yosh avlodning intellektual salohiyati o'sishi, jismoniy rivojlanishi, Vatanga, jamiyatga, oilaga nisbatan qadriyatli dunyoqarashi mukammal rivojlangan shaxs sifatida shakllanishiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Adabiy jarayon", "Millat va ma'naviyat" nomli dasturlar ssenariysida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 9 fevraldagi 04-36-202-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar Farg'ona vodiysi oila qadriyatlar transformatsiyasi davriy turkumlashtirishdagi tamoyillar, qonuniyatlar tizimlashtirilishi, o'zgarish segmentlari asoslanishi, zamonaviy global davrda O'zbekiston geostратегiyasida Farg'ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlarini transformatsion jarayonlarining ijtimoiy, madaniy-mental fenomenlarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan korreksiyasi dalillanishi bo'yicha ilmiy qarashlar va faktlar bilan boyitib berishda xizmat qilgan;

Farg'ona vodiysida oila urf-odatlar va qadriyatlar tizimida vorisiylik va tadrijiylik tamoyillari, qonuniyatlari, o'zgarish segmentlari, madaniy-mental fenomenlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan korrelyatsiyasi, Farg'ona vodiysi oila qadriyatlar transformatsiyasi o'zgarish segmentlari bo'yicha ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2020-2022 yillarda bajarilgan S-ECAGD-18-CA-0067(P020002335) raqamli “FY-18 English Access Microscholarship program” Amerika Qo‘shma Shtatlari ta‘lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 25-martdagi №41-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada zamonaviy global davrda O‘zbekiston geostrategiyasida Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlarini transformatsion jarayonlarining ijtimoiy, madaniy-mental fenomenlarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan korreksiyasi aniqlandi;

zamonaviy global davrda Farg‘ona vodiysida demografik o‘shishning balandligi, mintaqada oilalar soni ortib borishi shu bilan birga, aholi orasida mehnat resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, ishsizlik oqibatida migratsiya jarayonining ko‘proq yosh yigitlarning oiladan yiroqda bo‘lishi oila qadriyatlarining buzilishiga, ajrimlarga olib kelayotgani, natijada yosh avlodni millat mentalitetiga mos tarzda tarbiyalashda, oila urf-odatlari va qadriyatlarini to‘g‘ri tushuntira olish, ularni targ‘ib qilish orqali O‘zbekiston geostrategiyasida Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlari va qadriyatlarini saqlab qolish muhimligi bo‘yicha ilmiy xulosalardan Bremen shahridagi A&A Ausbildung und Arbeit Plus GmbH ilmiy-tadqiqot markazining “Markaziy Osiyo oilalari qadriyatlarini” mavzusidagi ma‘ruzani shakllantirishda foydalanilgan (A&A Ausbildung und Arbeit Plus GmbH ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 19 fevraldagi 44461-sonli ma‘lumotnomasi). Natijalar, Farg‘ona vodiysida oila va qadriyatlar tizimining milliy mental xususiyatlarini yoritish hamda unda jamiyat yacheykasi sifatida oila tizimining rolini aniqlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, 2 ta xorijiy jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, ishning mohiyatini aks ettiruvchi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 134 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalar asosida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysida oila urf-odatlari va qadriyatlarini transformatsiyasini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat.

Globalashuv jarayonlarida yuz berayotgan ko‘plab oila urf-odat va qadriyatlariga salbiy ta‘sir etuvchi omillar borki, bular demografik o‘shish, ijtimoiy munosabatlar, aholi turmush tarzining destruktiv rivojiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun o‘zini tanigan har bir millat oilaviy munosabatlarni mustahkamlashi, millat bardavomligini ta‘minlashi, oila urf-odatlari va qadriyatlarini saqlab qolishini hayot taqozo qilmoqda.

Tarixdan ma‘lumki, har bir hudud, millatning oiladagi qadriyatlarini va urf-odatlarini mavjud. U insonlarning diniy tasavvurlari, e‘tiqodlari, qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Oilaviy qadriyatlar, oilaning tuzilishi, funksiyalari, rollari, e‘tiqodlari, munosabatlari va ideallariga tegishli bo‘lgan an‘anaviy yoki madaniy qadriyatlardir. Oila qadriyatlarini muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta‘minlovchi muhim etnografik belgilardan biri hisoblanadi. U millatning turmush-tarzi, o‘y kechinmalarini ham ifodalaydi. Shu bilan birga qadriyatlar, oila a‘zolarini bir g‘oya ostida birlashtiradi. O‘zaro hurmat, mehr, vafo, sadoqatni mustahkamlaydi.

Oila urf-odatlarini va qadriyatlarini transformatsiyasini o‘rganish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. O‘zbek xalqini qadimdan hozirgacha oila urf-odatlarini va qadriyatlarini ko‘plab tadqiqotchilar o‘rganib kelmoqda. Xususan, Farg‘ona vodiysining o‘zgacha oila qadriyatlarini va urf-odatlarini tadqiqotchilar tomonidan qiziqish uyg‘otib kelgan. Farg‘ona vodiysi timsolida oila qadriyatlarini o‘zbek xalqining madaniy va ma‘naviy urf-odatlarining qadimdan hozirgacha shakllanib kelgan muhim segmenti milliy munosabatlar izchilligini ifodalaydi.

Farg‘ona vodiysini ko‘plab manbalar orqali tadqiq etish mumkin, lekin, oila urf-odat va qadriyatlarini tarixiy tadqiq etishda “Avesto” muhim manba hisoblanadi. Avestoning eng qadimgi qismlarida (Yasht, Gotalar) ibtidoiy tasavvurlardan kelib chiqqan uzoq ajdodlarning ijtimoiy hayoti va ma‘naviy madaniyati haqidagi ma‘lumotlar<sup>7</sup> o‘z aksini topgan. Avesto ma‘lumotlari, jamiyat, oila va uning tarkibi, urug‘ va qabilalarning tuzilishi, hududiy joylashuvi va o‘zaro aloqalari<sup>8</sup> kabi masalalarni o‘rganishga imkon yaratadi.

Farg‘ona vodiysining tarixi olis qadimiyat bilan bog‘liq. Uning qadimiy ekanligi xususida “Tabaqati Tohiriy”, “Mulahaqot us-suroh”, “Qomus ul-a‘lom”, “Ajoyib ul-buldon”, “Shohnoma” kabi asarlarda aniq ma‘lumotlar o‘rin olgan<sup>9</sup>.

Muhammad at-Tabariyning “Tarixi Tabari<sup>10</sup> asarida Turkiston xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi kurashi va qo‘zg‘olonlari jumladan Farg‘onadagi janglar; Abu Muslim harakati, Muqanna qo‘zg‘oloni bayon qilingan.

<sup>7</sup> Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи: тарих фан. бўй. док. (DSc) ... дисс. - Урганч, 2019. - Б. 17.; Дьяконов М.М. Сложения классового обществ в Северной Бактрии // СА. - Москва: 1954. Т. XIX - С. 121-140.

<sup>8</sup> Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи: тарих фан. бўй. док. (DSc)... дисс. - Урганч, 2019. - Б. 20.; Дьяконов М.М. Сложения классового обществ в Северной Бактрии // СА. - Москва: 1954. Т. XIX - С. 121-140

<sup>9</sup> Исхоқхон тўра Ибрат Танланган асарлар - Тошкент: “Маънавият”, 2005. - Б. 200.

<sup>10</sup> Ат-Табари Мухаммад. История ат-Табари. - Ташкент: Фан, 1987. - С. 440.

Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosida, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Imom G'azzoliy kabi allomalarimiz ijodida oila muqaddas qadriyat ekanligi, turmush qurish avlodlar davomiyligini ta'minlashi, oilaviy munosabatlar mustahkamlanishida urf-odat va qadriyatlarning o'rni naqadar muhimligi haqidagi qarashlar mavjud.

Vodiy tarixidan ma'lumot beruvchi Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari vodiy turmush tarzi, qadriyat va urf-odatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar orqali Boburning hayoti, ijodi bilan birgalikda vodiyning geografik joylashuvi, o'ziga xos iqlimi, aholisi, oila munosabatlari, urf-odat va qadriyatlari haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Tog', daryo, o'simlik va hayvonot dunyosi, yo'llar, ob-havo, masofa, aholi va ularning mashg'ulotlari, yashash usullari, odamlarning moddiy turmush vositalarining barchasi, umuman ijtimoiy hayot va davr, tabiat, ularning aloqalari haqida ma'lumot keltiriladi. Vodiyning go'zal tabiati, mazali mevalari, dehqonchilikda yetishtirilgan mahsulotlarni Bobur asarlarida ta'riflaydi.

Tarixdan Farg'ona vodiysi oila munosabatlari va jamiyat boshqaruvida ayollarning ishtiroki kuzatiladi. Jumladan XIX asr ikkinchi yarmida Nodirabegim taxallusi bilan ijod qilgan Andijon hokimi Rahmonquliboyning qizlari Mohlaroyim hayoti va ijodi orqali o'sha davr xotin-qizlarining turmush-tarzi, jamiyatdagi o'rni, oiladagi mavqei haqida ma'lumotlar olish mumkin. Uning she'rlarida go'zallik va sadoqat, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, his-tuyg'ulari badiiy aks ettirilgan. Nodirabegim turmush o'rtog'i Amir Umarxon vafotidan so'ng taxtga o'tirgan farzandi Muhammad Alixonga davlat ishlarida yordamlashadi. Bu orqali vodiy ayollarinig har sohada aql-zakovatli, ilimli, oqila ekanliklari namoyon bo'ladi. Shu davrda yashab ijod etgan Uvaysiy Mohlaroyimga ustoz bo'lgani, serqirra ijodkor sifatida barcha janrlarda ijod qilganligi ma'lum. Uvaysiy sherlarida vodiy ayollaridagi vafodorlik, sadoqat, muhabbat kabi xislatlarni bayon qiladi.

XIX-XX asrlarda ijod etgan Muqimiy, Hamza, Furqat, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, kabi mutafakkirlar ijodida o'sha davrdagi Farg'ona vodiysidagi og'ir iqtisodiy sharoit, xalqning sabr-bardoshi, ruslarning nohaq va adolatsiz siyosati turli obrazlar orqali ifodalanadi. Chor Rossiyasi bosqini va undan jabr ko'rgan xalqning mashaqqatli turmush tarzi ijodkorlar asarlari orqali bayon qilinadi. Chor Rossiyasi bosqinidan so'ng Farg'ona vodiysi aholisining asosiy mehnat faoliyati paxta yetishtirish ekanligi, ayollar, yosh bolalar ham og'ir mehnatga jalb qilinishi bayon qilingan. Oilalar ko'p farzand ekanligi, ayollarning milliy kiyimidan voz kechib, rus millatiga xos kiyimlarni kiyishi, oilaviy marosimlarda ruslashtirish siyosatining olib borilishi, aholining rus tilini bilmaydigan qatlami savodsiz deya kamsitilish holatlari bayon qilingan.

Is'hoqxon Junaydullo xoja o'g'li Ibratning "Tarixi Farg'ona<sup>11</sup>" va Yo'ldosh Sulaymonning "Farg'onanoma<sup>12</sup>" asarlarida Farg'ona vodiysining tarixi, nomlanishi va paydo bo'lishi haqidagi doston va rivoyatlar keltirilgan.

<sup>11</sup> Исҳоқхон тўра Ибрат Тарихи Фарғона - Тошкент: "Маънавият", 2005. - Б. 37.

<sup>12</sup> Йўлдош Сулаймон Фарғонаном Водий достони - Тошкент: "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат" пашриёти, 1995. - Б. 80.

Oila qadriyatlari urf-odatlarini talqin qilgan mutafakkirlar Fitratning “Oila yoxud oila boshqaruv asoslari” asarida Oilaviy munosabatlarning fiqhiy asoslari, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida XX asrda Farg‘ona vodiysi oilalari turmush tarzi, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida, o‘sha davrdagi yoshlarning odob-axloqi, oila munosabatlaridagi rishtalar, To‘lagan Qosimbekovning “Singan qilich” romanida Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi, Qo‘qondagi vaziyatlar, urushning salbiy oqibatlarini yoritib berilgan. Ushbu asarlarda XIX-XX asrlarda Farg‘ona vodiysidagi og‘ir iqtisodiy sharoit, aholi turmush tarzining mashaqqatlari, xalqning noroziligi, oilaviy urf-odat va an‘analardagi transformatsiya jarayonlari yoritib berilgan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi Marg‘ilonlik Kumush bibining ibo-hayosi, odobi, andishasi, go‘zal xulqi, shu hududda yashovchi qizlarning xarakterini tasvirlaydi. Muallif asarda vodiylar ayol-qizlarining o‘ziga xos xususiyatlarini bayon qiladi. Asarda o‘sha davrga xos bo‘lgan oila urf-odat va marosimlari er-xotinlar orasidagi o‘zaro munosabatlar, ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar, nikoh, oila, mahr masalalari yoritilgan. Muallif asarda Farg‘ona vodiysi XIX asrdan XX asrga o‘tayotgan davrda oila urf-odatlarini va qadriyatlaridagi transformatsiya jarayonlarini bayon qiladi.

Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf kabi vodiylarda yashab ijod etgan mutafakkirlar oila qadriyatlari va urf-odatlaridagi zamonaviy muamolarni turli obrazlar, o‘xshatishlar orqali bayon qilganlar. Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini tarixiy to‘rt davrga bo‘lib o‘rganish zarurat hisoblanadi.

1. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus olimlarining ilmiy ishlari paydo bo‘la boshlagan davr. Bu davrda, A.Vamberi, Pottapov, V.Nalivkin, A.Luriya kabi tadqiqotchilar olib borgan ekspeditsiyalari va ularning natijalari o‘sha davr Farg‘ona vodiysi aholisi turmush tarzini o‘rganilishida katta ilmiy meros bo‘lib xizmat qiladi.

2. Jadidlar davri. Jadid mutafakkirlari tomonidan Farg‘ona vodiysi oila-urf-odatlarini va qadriyatlarini keng talqin qilingan. Ushbu davrdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar jadid mutafakkirlari asarlari orqali namoyon bo‘ladi.

3. Mustaqillikdan oldingi qayta qurish geostrategiyasi davri. Mustaqillikka erishish arafasida Farg‘ona vodiysini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari.

4. Mustaqillik davri mabalari. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekiston geostrategiyasida Farg‘ona vodiysining o‘rni, Farg‘ona vodiysi oila urf-odat va qadriyatlarini bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos jihatlari etnologik, tarixiy, falsafiy tahlil qilish.

Farg‘ona vodiysi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini bo‘yicha V.Nalivkin va M.Nalivkina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. “Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы<sup>13</sup>” asarida V.Nalivkin vodiylar oilalari turmush tarzi bilan tanishib, ayollarni oiladagi faoliyati, farzand tarbiyasi, nikoh va ajrim masalalari, jamiyatdagi yoshlar, katta oilalar,

---

<sup>13</sup> Наливкин В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы (В.Наливкин) - Москва: Книга по Требованию, 2015. - С. 249.

ularning oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlari, qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi.

1930 yillar boshlarida A.R.Luriya Markaziy Osiyoda psixologik ekspeditsiya o'tkazadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra chekka qishloqlar aholisi, erkaklar va ayollar, ijtimoiy ish va ijtimoiy ishlarga jalb qilinmagan dehqonlar an'anaviy jamiyatning o'zgarishini o'rganadilar. Farg'ona vodiysi intellektual salohiyati o'rganilganda fanda uchramaydigan hodisaga guvoh bo'ladilar. G'arb ilmiy nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotlarida vodiyning savodsiz aholisi deb tashxis qo'ygan odamlari tafakkuri yuqori darajada ekanligi tadqiqotchilarni hayratga soldi. Tadqiqotchilar nutqida savodi bo'lmagan aholi tajriba va malakaga suyanar edilar. Shu nuqtai nazardan, muallif vodiy aholisining yuqori intellektual salohiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi<sup>14</sup>.

Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan oila qadriyatlari va urf-odatlari o'rganilgan. O'zbek milliy mentalitetiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarni saqlab qolishga harakat qilgan bir guruh mutafakkirlar ijodi Farg'ona vodiysining XX asrdagi turmush tarzini o'rganishda katta ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" kitobida oila boshqarishga asos solish Bani Odam madaniyatining asosi ekanligi<sup>15</sup> aytiladi, Fazluddin Iqroruddin Nikoh va oila risolasida nikoh va uylanish odoblari, er-xotinlik huquq va majburiyatlari, taloq va idda kabi oilaviy masalalarda diniy qadriyatlarning o'rni alohida ekanligiga to'xtalib o'tadi. Ya'ni oila bo'lib yashash barcha tirik mahluqotlarga berilgan lekin unda madaniyatli boshqaruv faqat insonlargagina xos xususiyat ekanligini tushunishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, mintaqa aholisi hayotida oilaning o'zi bir muqaddas qadriyat, undagi urf-odat va an'analar esa o'sha qadriyatlar tizimiga kiradi.

Farg'ona vodiysi bo'yicha olib borilgan siyosiy, geografik tadqiqotlarni to'rt davr bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiq.

1. Qadimdan Chor Rossiyasigacha bo'lgan davr
2. Chor Rossiyasi davri
3. Sovet ittifoqi davri
4. Mustaqillik davri

Farg'ona vodiysida ko'plab ilmiy tadqiqot, ekspeditsiyalar o'tkazildi. Lekin asosan ilmiy manbalarni sovet mustamlakasi davrida olib borilgan tadqiqotlar orqali o'rganish mumkin. Ushbu davrdagi birinchi asarlar Flipp Yefromovning "To'qqiz yillik sayohat" asari hisoblanadi<sup>16</sup>. Muallif taqdir taqazosi bilan Qo'qonga keladi va ushbu yerlik aholining turmush tarzi unda katta qiziqish uyg'otadi. Hudud aholisining o'ziga xos oilaviy munosabatlaridagi er va xotin muhabbati, aholining dinga bo'lgan e'tiqodi kuchli ekanligi kabi masalalarni bayon qiladi. Qo'qonda katta savdo majmuasi bo'lib, boshqa davlatlardan savdo-sotiq uchun

<sup>14</sup> Выготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения: Обезьяна. Примитив. Ребенок. - Москва: Педагогика-Пресс, 1993. - С. 224.

<sup>15</sup> Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. - Тошкент: Маънавият, 2000. - Б. 112.

<sup>16</sup> Ефремов Ф.С. Десятилетнее странствование. (Под ред., вступ. статья и примеч. Э.Мурзаева) - Москва: Гос. изд-во геогр. лит-ры (Географгиз), 1952. - С. 87.

ko'plab xorijliklar tashrif buyurishini, Buyuk Ipak yo'li o'tganligi sabab savdogarlar ko'p uchrashishini aytib o'tadi.

Farg'ona vodiysini geografik joylashuvi, imkoniyatlari, aholisi zichligi, chegaralar bo'linishi va shu sababli millatlararo nizolarning kelib chiqishi sababli mintaqa oila urf-odatlarini va qadriyatlariga katta ta'sir o'tkazadi. Turli davrlardagi nizolar, noilmiy geostrategik tadqiqotlar sabab mintaqaning o'ziga xosligi ob'yektiv o'rganilmaganligi ayon bo'ldi. Bundan tashqari mintaqa Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim vosita Buyuk Ipak yo'lining hududdan o'tganligi aholidagi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini transformatsiyasini tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi "Farg'ona vodiysida oila urf-odatlarini va qadriyatlarining transformatsiyasi va uning ijtimoiy jarayonlarda namoyon bo'lish xususiyatlari"** deb nomlangan.

Globalashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalariga ta'sir etgani kabi Farg'ona vodiysi oila urf-odatlarini va qadriyatlarini ham chetlab o'tmadi. Har bir hududning o'ziga xos mentalitetini saqlab qolish bugunning dolzarb mavzusiga aylandi. Shu nuqtai nazardan ushbu bob Farg'ona vodiysi oila urf-odatlarini va qadriyatlaridagi o'ziga xos milliy mental xususiyatlarining shakllanish dinamikasiga bag'ishlangan.

Vodiy aholisi uchun oilaning o'zi oilaviy qadriyatdir. Sababi, har bir inson oilada dunyoga keladi, ta'lim va tarbiya avvalo oiladan boshlanadi va eng muhimi oilada insonning eng yaqin qarindoshlari istiqomat qiladi. Shuning uchun ba'zi oilalarda farzandlari, turmush o'rtog'i yoki ota-onalari bilan birgalikda vaqt o'tkazish orqali oilani afzal biladilar. Qarindoshlar shaxsan rishtani mustahkamlashlari uchun oila a'zolari (ota-onalar, farzandlar, bobo va buvilar, aka-uka, opa-singillar) birgalikda bayram kunlari, tug'ilgan kunlarni nishonlaydilar.

Vodiy oilalarida farzandlarga yoshligidan axloqiy munosabatlar ota-onasi tomonidan o'rgatib boriladi. Bolalarni tarbiyalashda dasturxon atrofi eng qulay joy sanaladi. Bu yerda kattalar yoshlarga pand-nasihatlar qilib, nima yaxshiyu, nima yomonligini uqtirib boriladi. Buvi va bobolar nabiralar uchun o'zlarining o'tmishlarini va eshitib katta bo'lgan ertaklarini aytib beradilar. Oilada katta insonlar borligi vodiy aholisi uchun faxr hisoblanadi. Shuning uchun ham "Qarisi bor uyning parisi bor" degan maqol xalq orasida mashhur.

Zaroastrizmdan meros bo'lib qolgan, zamonlar osha takomillashib borgan bag'rikenglik, vatanni sevish, iymon, e'tiqod mustahkamligi, tabiat bilan o'zini bir deb his etib, yerga muhabbat tuyg'usi asosida shakllangan mehnatsevarlik xislatlari<sup>17</sup> vodiy oilalarida ota-onalar farzandlariga bergan ta'lim-tarbiya orqali avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ozodlik, farovonlik, hamjihatlik kabi demokratik ideallar o'zbeklarda, xususan, Farg'ona vodiysida bir-birini qo'llab-quvvatlash, o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida oila, qon-qarindosh, qo'ni-qo'shni, mahalla, yurt, vatan farovonligiga erishish kabi xislatlar oila qadriyatlarida aks etadi.

---

<sup>17</sup> Мадаева Ш.О. Ўзбек менталитетига демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари: фал. фан. док. ...дисс. - Тошкент, 2009. - Б. 279.

## Vodiydagi viloyatlarda oila a'zolarining nomlari

Oila a'zolarining nomi	Andijonda	Namanganda	Farg'onada
Bobo	Opodada	Opodada	Opoqi, bobo
Buvi	Buva, ena	Acha	Buvi
Ota	Dada	Deda	Dada
Ona	Aya, buva	Aba	Aya, oyi
Amaki, tog'a	Amaki, boydada, tog'a	Amaki, tog'a, ova	Amaki, tog'a
Amma, xola	Amma, xola	Amma, xola	Amma, xola
Yanga	Kelin aya, kelin buva	Kenchaba	Kelinoyi, kelinopa
Opa	Opa	Opa	Opa
Aka	Aka	Aka	Aka
Uka	Uka	Uka	Uka
Singil	Singil	Singil	Singil

Farg'ona vodiysi azaldan diniy xilma-xillikka zamin bo'lganligi uchun bag'rikenglik zaruriyat hisoblanadi. XII asrgacha zardushtiylik ibodatxonalari, buddizm stupalari, xristiyan cherkovlari, yahudiy ibodatxonalari va musulmon masjidleri joy olgan. Avesto yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid asosiy manbadir<sup>18</sup>. Mil.av. VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida Zardushtilik dini paydo bo'ldi va bu yerlik aholining qarashlarini turmush tarzini butunlay o'zgartirib yubordi. Zardushtiylik ta'limoti o'sha davr uchun ilohiy din sifatida namoyon bo'ldi. Zardusht ta'limoti shu o'lka ongu shuuriga muhrlanib bordi. Nafaqat muqaddas din balki "Avesto" diniy aqidalar majmuasi, ulug' bir badiiy-falsafiy yodgorlik bo'lib xizmat qildi. U oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi<sup>19</sup>.

Vodiyga islom dini kirib kelishi bilan aholisi musulmon dini, sunniylik, hanafiya yoki Imom A'zam mazhabiga e'tiqod qiladi. Butun musulmon olamida musulmon huquqi – fiqh bo'yicha eng aniq, izchil mukammal asar sifatida Burhoniddin al-Marg'iloniyning "Hidoya" asari vodiy oila munosabatlarini tartibga soluvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. "Hidoya" to'rt juzdan iborat bo'lib, ikkinchi juzida oila munosabatlarini tartibga solish bo'yicha fiqhiiy masalalar, ya'ni nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash<sup>20</sup> kabi masalalar bayon etilgan. Ushbu asardan ruslar Markaziy Osiyoni bosib olib, shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguniga qadar shariat qozilari tomonidan foydalanib kelingan. Hozirda ham islom shariati asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi.

Vodiy oila munosabatlarini islom dini asosida tartibga solinishida muqaddas Qur'oni Karim va hadislar muhim manba hisoblanadi. Jumladan, Imom al Buxoriy Al-jomi' as-sahih hadislar to'plamida oilaviy munosabatlarni tartibga solish, oila

<sup>18</sup> Назаров Қ. "Қадриятлар фалсафаси" - Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. - Б. 85.

<sup>19</sup> Аширов А. "Авестодан мерос маросимлар. - Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашри, 2001. - Б. 3.

<sup>20</sup> Бурхониддин ал-Марғинович "Ҳидоя" 2-жуз. - Тошкент: "Ҳилол нашр", 2020. - Б. 592.

urf-odatlari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerakligi kabi masalalar vodiy musulmonlari uchun muhim hisoblanadi. Imom al Buxoriy hadislarida oila qurib yashash, oila muqaddasligi, oila munosabatlaridagi huquq va majburiyatlar keng targ'ib qilinadi.

Rossiya Imperiyasi Turkistonni bosib olgan davrda Farg'ona vodiysida oilaviy qadriyatlar mohiyatan o'zgarib ketdi. Rossiya madaniyatining kirib kelishi bilan oiladagi ko'plab yangi qadriyatlar kirib keldi. Bu davrda, qanchadan-qancha turkistonliklar boshiga musofirlik, g'ariblik kulfati tushgan. Ana shunday siyosatning oqibatida minglab kishilar, ayniqsa yosh avlod vakillari ota-bobolarini, o'z shajarasini, urug'-aymog'ini bilmaydigan bo'ldi. Ilgari mo'min-musulmon yetti avlodining ismini yod bilgan bo'lsa, hozirda ko'p yoshlar 3-4 avlodini ismini biladi, xolos. O'z avlod-ajdodini tarixini bilmaydigan insonlarda oilaga bo'lgan mehr-oqibat, sadoqat ham, ajdodlaridan faxrlanish ruhi ham bo'lmaydi. O'zbek xalqini mana shunday manqurtga aylantirishga bo'lgan harakatlar oilaviy qadriyatlarni tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi.

Ruslar kelishidan oldin 1860-1870 yillarda etnik o'ziga xoslik Markaziy Osiyo aholisiga ma'lum emas edi. Sababi zaruriy o'ziga xosliklar tabaqaviy (oq va qora suyak), diniy (sunniylar, shialar, ismoiliylar va turli so'fiy birodarliklarga mansub), iqtisodiy va madaniy (o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi, tog'li), mintaqaviy (buxoriylar)ga asoslangan.

Gubayeva S.S., Yusupova S.N. va boshqa etnograf, tarixchi olimlar Farg'ona vodiysini ko'p millatli aholi tashkil etishini, mustaqillik yillarida hududda o'zbeklar soni tobora ortib borganini izohlaydilar. 2016 yilda Farg'ona vodiysida 100 ga yaqin millat vakillari yashagan, undan o'zbek millati vakillari 90,2%, tojik millati vakillari 5,2%, qirg'iz millati vakillari 2,2%, ruslar 0,9, tatarlar 14,9%, koreyslar 0,1%, ukrainlar (7359 ming kishi), yahudiylar (3186) ming kishini tashkil etgan. Farg'ona vodiysining qulay geografik joylashuvi nafaqat mintaqaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilab berdi, balki bu yerga turli etnik elementlarning sezilarli darajada kirib kelishiga sabab bo'ldi.

Vodiyning bola shaxsiyatiga bo'lgan hurmatini ruslar kirib kelgunga qadar vodiya bolalar uylari bo'lmaganligi bilan ifodalash mumkin. Sovet hukumati o'zining birinchi o'n yilligida bolalar mehribonlik uylarini ochdi. XX asrning 20-yillari o'rtalarida Farg'ona vodiysida 30 ga yaqin Mehribonlik uylari mavjud bo'lgan. Ulardan 21 tasi shaharlarda, 9 tasi qishloqlarda joylashgan. Mehribonlik uylari asosan shahar markazlarida bo'lib, Andijon, Namangan, Farg'ona, Qo'qon markazlarida qurilgan<sup>21</sup>.

Ko'p farzandli bo'lish va barcha farzandlarni tarbiyalash oila uchun hech qanday noqulaylik tug'dirmagan. Yaqin davrlargacha turmush qurish jarayonida ayollar 15-17 nafargacha farzand dunyoga keltirgan. Aksariyat oilalarda 10 nafardan farzandlar bo'lgan. Ayollarning befarzandligi ayb hisoblangan. Bolani tashlab ketmoqchi bo'lganlar ertalab bomdod namozidan oldin masjidlarga berib ketganlar. Masjidga hamma yig'ilganda e'lon qilingan va biror inson bolani asrab

---

<sup>21</sup> Хужанова М.Ф. История детских домов в Узбекистане: формирование, деятельность и проблемы (1920–1930 гг.) // Молодой учёный Международный научный журнал № 19 (123) / 2016. - С. 284-287.

olgan. Har qanday og'ir sharoitlarda ham oilada farzandlarni sog'lom voyaga yetkazish, ularni tarbiyalash vodiy aholisi uchun muhim oila qadriyati hisoblanadi.

Turkiylarning feodal davrida nikoh o'g'il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh etib belgilangan. XIX asr oxirida hozirgi O'zbekiston hududida o'rtacha nikoh yoshi 15-17 yoshni tashkil qilgan. 1897 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyoda 17-19 yoshdagi qizlarning 64 foizi turmushga chiqib bo'lgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nikoh yoshi o'sgani kuzatiladi. 2000 yillarda nikohning o'rtacha yoshi erkaklarda 24,2 yoshdan 25,9 yoshga, ayollarda 21,4 yoshdan, 22,5 yoshga ko'tarildi. O'zbekistondagi ushbu jarayonlar Farg'ona vodiysini ham o'z ichiga oladi. Farg'ona vodiysida ham nikoh yoshi mustaqillik yillarida balandlab bormoqda.

